

PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDA MUHIM STRATEGIYALAR

Qurbanova Xusnora Xudoyberdi qizi

*Qashqadaryo PMM Maktabgacha ,
boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyatimizda pedagoglarga bo‘lgan e‘tibor va pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, bu jarayonda qo‘llanilishi zarur bo‘lgan strategiyalar, zamonaviy yondashuvlar va ilg‘or tajribalar yoritilgan. Shu bilan birga, amaliy takliflar ham keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagog, kasbiy rivojlanish, strategiya, zamonaviy yondashuv.*

Bugun jamiyatimizda pedagog shaxsiga har qachongidanda muhim e‘tibor, ularning samarali mehnatlariga arzigulik lutf bilan e‘tirof etilmoqda. XXI asrda ta‘lim tizimining rivojlanishi pedagogik kadrlarning kasbiy malakasiga bevosita bog‘liq. Yangi texnologiyalar, raqamli vositalar, innovatsion yondashuvlar va global talablar sharoitida pedagoglardan nafaqat o‘z fanini chuqur bilish, balki o‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llay olish ham talab etiladi. Shu sababli, pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda 2023–2026-yillarga mo‘ljallangan “Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish milliy dasturi” asosida uzluksiz ta‘lim tizimi yaratilib, “O‘qituvchilar milliy malaka ramkasi” ishlab chiqilgan. Bu orqali kasbiy rivojlanish bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bugungi kunda ta‘lim tizimining rivojlanishi, eng avvalo, pedagog kadrlarning bilim va malakasiga bevosita bog‘liq. Ta‘lim sifati pedagogning kasbiy mahorati bilan belgilanadi. Shu boisdan pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish o‘qituvchilarga zamonaviy bilimlarni egallash, yangi metodlarni o‘zlashtirish, o‘z ustida ishlash va ta‘lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) — Zamonaviy ta‘lim tizimi o‘qituvchilardan faqat fan bo‘yicha bilim emas, balki pedagogik mahorat, metodik yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini ham talab qilmoqda, bu pedagoglarning o‘z kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini zamon talablari asosida

yangilab borish jarayonidir. UKR nafaqat kurslarda qatnashish bilan cheklanmaydi, balki mustaqil ta’lim, tajriba almashish, refleksiya, ilmiy-ijodiy faoliyat kabi turli shakllarni o‘z ichiga oladi. Bu esa pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini zarur holga keltiradi. Xalqaro tajriba va milliy strategiyalar bu borada muhim yo‘nalishlar va strategiyalarni belgilab bermoqda . Kasbiy rivojlanishning mazmuni va ahamiyati orqali quyidagilarni anglaymiz.

Kasbiy rivojlanish – bu pedagogning o‘z kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini doimiy takomillashtirib borishidir. Bu jarayon o‘qituvchining dars berish sifati, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi va umumiy ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi .

Mazkur tizimni rivojlantirishdagi zamonaviy strategiyalar quyidagilardan iborat.

Modul asosidagi o‘qitish: Pedagoglar o‘zlariga mos modullarni tanlab, kerakli bilim va ko‘nikmalarni maqsadli ravishda egallaydilar.

Mentorlik va kouching: Tajribali ustozlar tomonidan yangi o‘qituvchilarga maslahat va amaliy ko‘mak ko‘rsatish orqali malaka oshirish.

Kasbiy o‘z-o‘zini baholash: O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholab, zaif tomonlarini aniqlaydi va ularni rivojlantirish ustida ishlaydi.

Raqamli platformalardan foydalanish: Coursera, EdX, Udemiy kabi onlayn platformalar orqali har qanday joyda va vaqtda o‘rganish imkoniyati.

Faol ta’lim metodlarini o‘zlashtirish: Loyihaviy ta’lim, STEAM yondashuvi, kritikall fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari va boshqa innovatsion usullar.

Ayni davrdagi eng muhim tendensiyalar quyidagilardan iborat.

Hayot davomida o‘qish (Lifelong Learning): Pedagoglar faqat bir marta emas, balki butun kasbiy faoliyati davomida o‘qib-o‘rganishi zarur. Pedagoglar uchun uzluksiz ta’lim prinsipi asosida doimiy malaka oshirish, treninglar, vebinarlar, ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish tavsiya etiladi. Bu ularga yangi metod va yondashuvlarni o‘zlashtirish imkonini beradi .

Individual rivojlanish rejalari: Har bir pedagog o‘ziga xos kasbiy rivojlanish yo‘l xaritasini ishlab chiqadi.

Tarmoqlanish va tajriba almashish: Hududiy yoki xalqaro hamkorlik asosida o‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashadilar.

Tahliliy va refleksiv yondashuv: O‘qituvchilar o‘z amaliyotini chuqur tahlil qilgan holda yangi yechimlar ishlab chiqadilar. O‘z faoliyatini tahlil qilish, mustaqil baholash (self-assessment) va refleksiya (ya’ni o‘z ustida fikr yuritish) orqali o‘qituvchi o‘z kamchiliklarini aniqlab, ularni bartaraf etishga intiladi .

Raqamli pedagogika: Onlayn ta’lim vositalari, sun’iy intellekt, AR/VR texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik darajasini oshirish. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi o’qituvchilardan zamonaviy raqamli vositalarni egallashni talab etmoqda. Shu sababli AKT bo’yicha doimiy treninglar, platformalarda ishlash bo’yicha o’quv kurslari muhim strategiya sanaladi.

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bugungi kunda ta’lim sifati va raqobatbardosh avlodni shakllantirishning asosiy kafolatlaridan biridir. Innovatsion strategiyalarni joriy qilish, raqamli texnologiyalar bilan uyg’un ishlash, doimiy o’rganish va rivojlanishga intilish har bir pedagogning kundalik kasbiy faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bu – ta’lim sifatining barqaror asosidir. Yaxshi strategiyalar orqali malakali, zamonaviy va ijodiy o’qituvchi shakllanadi. Davlat siyosatida bu yo’nalishning ustuvor yo’lga qo’yilishi – raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratishga xizmat qiladi.

1. Kasbiy rivojlanish tushunchasi va uning ahamiyati

Pedagogik faoliyat murakkab va uzluksiz yangilanishni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Kasbiy rivojlanish — bu pedagogning o’z sohasida muntazam ravishda yangi bilim va ko’nikmalarni egallashi, o’z faoliyatini tahlil qilishi va zamonaviy talablar asosida yangilab borishidir.

Bu jarayonning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo’ladi:

O’qituvchi o’z fanini chuqur biladi va uni samarali yetkazadi;

- Dars jarayonida innovatsion usullarni qo’llaydi;
- O’quvchilar bilan samarali muloqot o’rnatiladi;
- Ta’limning natijaviyligi ortadi.

2. Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish strategiyalari

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda quyidagi strategiyalar muhim o’rin tutadi:

a) Malaka oshirish kurslari va treninglar

Har yili muntazam ravishda tashkil etiladigan qisqa muddatli malaka oshirish kurslari, amaliy mashg’ulotlar, treninglar orqali o’qituvchilarga yangi bilimlar beriladi. Ayniqsa, STEAM, CLIL, IKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) asosidagi treninglar muhim ahamiyatga ega.

b) Mentorlik va tajriba almashish tizimi

Yangi ish boshlagan pedagoglar uchun tajribali ustozlarning maslahatlari, qo’llab-quvvatlovi kasbiy o’sishga katta ta’sir ko’rsatadi. Mentorlik tizimi orqali o’qituvchilar o’zaro tajriba almashadilar, tahliliy fikrlash va metodik yondashuvlarni o’zlashtiradilar.

c) O‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiya

O‘qituvchining mustaqil o‘qishi, ilmiy maqolalar o‘qishi, vebinar va onlayn kurslarda qatnashishi ham kasbiy o‘shishning muhim shaklidir. Shu bilan birga, refleksiya — o‘z faoliyatini tahlil qilish va undan xulosa chiqarish orqali rivojlanish samarali bo‘ladi.

d) Innovatsion loyihalarda ishtirok etish

Grantlar, startaplar, yangi metodik materiallar ishlab chiqish, fan olimpiadalari yoki xorijiy dasturlarda qatnashish orqali pedagog o‘z kasbida faol ishtirokchi bo‘ladi. Bu esa uni motivatsiyalantiradi va o‘z ustida ishlashga undaydi.

Xulosa

Pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tizimli va strategik asosda yo‘lga qo‘yish — ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Malaka oshirish, treninglar, mentorlik, innovatsiyalarga ochiqlik va refleksiya asosida yo‘lga qo‘yilgan rivojlanish strategiyalari o‘qituvchini nafaqat zamonaviy, balki ijodkor va samarali pedagogga aylantiradi.

Shu sababli, har bir ta’lim muassasasi, har bir rahbar va eng avvalo, o‘qituvchining o‘zi uzluksiz o‘rganish va rivojlanishga intilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi PQ-4749-son, 2020-yil-Pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida
- 2.O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida Qonun. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta’lim tizimi xodimlarini rag‘batlantirish to‘g‘risidagi farmon. – Toshkent, 2022.
- 4.UNESCO. Teacher policy development guide – Paris, 2019.
5. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2007.
6. Knowles M. The Adult Learner. – Routledge, 2015.
7. Schön D.A. The Reflective Practitioner. – Basic Books, 198
8. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) – Teachers College Record, 2006.